

**ISAJON SULTONNING TARIXIY ROMANLARIDA
POETIK STRUKTURA VA BADIY TO‘QIMA UYG‘UNLIGI
(Ijodkor dunyoqarashi hamda ijodiy tamoyillar tanlovi)**

Xolmuratova Moxira Egamberganovna

UrDU “O‘zbek tili va adabiyoti”

kafedrası mustaqil izlanuvchisi

E-mail: moxlaroyim19910220@gmail.com

Tel raqami: +998933399120

Annotatsiya: Maqolada yozuvchi Isajon Sultonning tarixiy romanlarida poetik struktura va badiiy to‘qima uyg‘unligi tahlil etiladi. Tadqiqot ishining maqsadi Isajon Sultonovning tarixiy romanlarining badiiy xususiyatlarini tahlil va tasnif etish bo‘lib, I.Sultonning badiiy mahoratning yangi qirralarini ilmiy-nazariy jihatdan umumlashtirish va shu asnoda yozuvchi ijodining o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida tutgan o‘rni hamda ahamiyatini ko‘rsatishdan iborat.

Kalit so‘zlar: mustabit, tuzum, davr, borliq, ijod, asardagi ijtimoiy-ma’naviy, roman, obraz, tasniflash, tahlil, badiiy mahorat, taraqqiyot

Annotation: The article analyzes the harmony between poetic structure and artistic imagination in the historical novels of the writer Isajon Sulton. The purpose of the research is to study and classify the artistic features of Isajon Sulton’s historical novels, to generalize the new aspects of his artistic mastery from a scientific and theoretical perspective, and thereby to show the role and significance of the writer’s creativity in the development of Uzbek literature.

Keywords: totalitarianism, system, era, existence, creativity, social and spiritual aspects in the work, novel, image, classification, analysis, artistic mastery, development.

Аннотация: В статье анализируется гармония поэтической структуры и художественного вымысла в исторических романах писателя Исаджона Султана. Цель исследования — проанализировать и классифицировать художественные особенности исторических романов Исаджона Султонова, обобщить новые грани его художественного мастерства с научно-теоретической точки зрения и показать роль и значение творчества писателя в развитии узбекской литературы.

Ключевые слова: тоталитаризм, система, эпоха, бытие, творчество, социально-нравственные аспекты произведения, роман, образ, классификация, анализ, художественное мастерство, развитие.

Milliy istiqlol sharofati bilan badiiy adabiyotda o‘ziga xoslik ko‘zga tashlana boshladi. Bu o‘ziga xoslikning yuzaga kelishi albatta buyuk O‘zbekistonning

dunyoga yuz ochishi bilan belgilanadi. Negaki, mustabit tuzum davrida jahon adabiyotiga bo'ylashadigan asarlar yaratishda yozuvchilar biroz hadik bilan qo'liga qalam olar edilar. Ayniqsa, sho'ro davri adabiyoti bu kabi masalalarni to'raligicha tasdiqlaydi. Aytish joizki, milliy istiqlol davri nasri har qachongidan ham shakllanib, boyib borayotgani fikr-u mulohazalarimizdan shahodat beradi. Mustaqillik o'zbek xalqiga o'zligini anglash va anglatish, tarixi, madaniyati, xalqona urf-odatlarini va qadriyatlarini tiklash, milliy o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etish uchun beqiyos imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratdi.

Muhtaram birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov alohida ta'kidlaganlaridek: **“Mening fikrimcha, yozuvchilik – bu oddiy kasb emas, xudo bergan iste’doddir. Bu qismat, peshonaga yozilgan taqdir. Bu kasbga hech qayerda o’qib, o’rgatib bo’lmaydi. Yozuvchilikning maktabi ham, dorilfununi ham bitta. U ham bo’lsa, bir umr hayotning ichida bo’lish, o’z xalqi bilan hamdard-u hamnafas bo’lib yashash, haqiqat va adolatga sadoqat bilan xizmat qilishdir”**.¹ Darhaqiqat, ushbu ibratli, purma’no fikrlarning o’ziyoq bizning bugungi adabiyotimizda yaratilish lozim bo’lgan mustaqil yurt qahramonini har jihatdan murakkab va ibratli qilib ko’rsatish uchun asos vazifasini ko’rsatmoqda. To’g’ri har bir asarda yangidan yangi voqeliklar qalamga olinadi. Bu tabiiy hol! Lekin o’sha yaratilarda qahramon masalasi to’la to’kis baholi qudrat hal qilinmayaptimi? Badiiy asar insonni kashf qiladi.

Inson kashf qilingandagina – tafakkur, borliq va yashash haqidagi sir-bilimlardan kishi to’raligicha voqif bo’ladi, yoki shu pog’onaga asta-sekinlik bilan ko’tarila boradi. Adabiyot har bir davrning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy muammolarini ko’tarib chiqishi va ularga javob izlashiga ko’ra tarbiyaviy ahamiyatga ega. Uning ijtimoiy-ma’rifiy xususiyati, ayniqsa, xalqning milliy ruhini ifodalab berishda ko’rinadi. Tabiiyki, bu jarayonda xalqona badiiy tafakkur tarzi ijodkorning adabiy shaxsiyati darajasini namoyon qiladi. Chinakam iste’dod egasi, xalq dilining ulkan tarjimoni Isajon Sultonov Abduraimovich ijodida xalqona badiiy tafakkur tarzi yetakchilik qiladi. Shuni aytish joizki, milliy istiqlol qo’lga kiritilgan kundan boshlab, adiblarimiz asriy orzusi – erkin ijod qilish yo’liga o’tdi. Har qanday erkinlikning og’ir va mashaqqatli tomonlari, yozgan asarlaridagi milliy tafakkurning nechog’li balandligi bilan o’lchanadi. Aynan shu jihatlarni tekshirish biz tanlagan “Isajon Sultonning tarixiy romanlarini g’oyaviy va badiiy tahlil qilish” degan mavzuning nechog’li dolzarb ekanligini isbotlab turibdi.

Badiiy asar ichi bo’sh idish kabidir. Unga yozuvchi olam va odam, xususan, borliq haqidagi oydin orzularini-yu, go’zal istaklarini, bashariyat uchun dolzarb masalalarni joylashi bilan to’ldiradi. Bu idishning rango-rangligi ham undagi xarakter, qahramon, obraz tushunchasining nechog’li yorqin bo’yoqlarda jilvalantirilgani bilan ham o’lchanadi. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug’aniyevich

Karimov ta’kidlarida shunday hikmatomuz tushuncha bor: **“Barchamizga ayonki, XXI asr intellektual salohiyat, tafakkur va ma’naviyat asri sifatida insoniyat oldida yangi-yangi ufqlar ochish bilan birga biz ilgari ko’rmagan, duch kelmagan keskin muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bugungi murakkab va tahlikali zamonda yozuvchining, bashariyatning ertangi kunini o’ylab, odamlarni ezgulikka, mehr-oqibat va bag’rikenglikka da’vat etishga qaratilgan haroratli so’zi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda”** Darhaqiqat, bu fikrlarni bugungi kun nasriga, undagi qahramon masalasiga muqoyasa qilsak masala mohiyati yanada tiniqlashadi. Tanlangan mavzu yuzasidan u yoki bu darajada ixcham tadqiqotlar, talqin va tahlillar olib borilgan bo’lsa-da, badiiy asar to’laligicha g’oyaviy va badiiy jihatdan tahlil qilingan emas. Tanlangan mavzu yuzasidan adabiy tanqidchi Rahimjon Rahmatov, filologiya fanlari doktori Dilmurod Quronov, Ahmadjon Meliboyev, Umarali Normatov kabilar katta - kichik tadqiqotlarida masalaga ayrim murojaatlar qilinganini uchratish mumkin. Shu asnoda biz mazkur o’rganilgan ishlarga tayanib, yangicha ilmiy tafakkur negizida tadqiq qilishga harakat qildik.

O’zbek romanchiligi salkam bir asrlik taraqqiyot tarixiga ega. Abdulla Qodiriy yetuk namunalarini yaratib bergan o’zbek romanchiligi tez rivojlandi, o’sdi, izlandi va adabiyotimizning asosiy janrlaridan biriga aylandi. O’zbek adabiyotida tarixiy, biografik, mistik, fantastik, detektiv, satirik va maishiy romanlar paydo bo’ldi. Roman jamiyat badiiy-estetik tafakkurini ini’kos qiluvchi janr bo’lgani uchun ham voqelik ichra evrilishi, inson o’y xayollari, ko’rgan-kechirganlari, topgan-yo’qotganlari bilan badiiy talqinga jalb etiladi. Roman izlanishga imkon beruvchi janr. So’nggi yillar ichida yaratilgan I.Sulton tarixiy asarlari bu janr imkoniyatlari, roman tarixi, tadriji haqida fikr-mulohaza yuritishga undaydi.

Tadqiqot ishining maqsadi Isajon Sultonovning tarixiy romanlarining badiiy tahlilidir. Tadqiqot ishi maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalarni yoritish va amalga oshirish nazarda tutiladi:

- Mavjud ishlarni qiyosiy o’rganish;
- asardagi ijtimoiy-ma’naviy ahamiyatni belgilash,
- romanning ichki tuzilishini belgilash;
- obrazlarni tasniflash va ular anglatgan ma’nolarni izohlash;

Isajon Sulton ijodini o’rganish menga katta mas’uliyat va zavq bag’ishlaydi, fikrlash, mulohaza qilish uchun boy material beradi. Uning asarlarini o’qigan sayin yozuvchi mahoratining yangi-yangi qirralarini, o’ziga xos tomonlarini topaverish mumkin. Biz bu ishimizda Isajon Sultonning tarixiy romanlarining ayrim tomonlarini – asarning g’oyasini, asarning badiiy til xususiyatlarini, yozuvchining obraz yaratishdagi mahoratini, badiiy-tasviriy vositalarni qo’llashi kabilarni tahlil

qildik. Yozuvchi ijodida qo'llagan badiiy-tasviriylar vositalari o'zaro birikib asar qimmatini belgilaydi.

Umuman olganda Isajon Sultonning tarixiy romanlari menda juda katta taassurot qoldirdi. Ushbu romanlarda bugungi kundagi juda dolzarb muammolar tilga olingan. Nafaqat bugungi kungi muammolar, balki bir necha ming yillik muammolar ko'tarilganiga guvoh bo'lamiz. Biz bitiruv tadqiqot ishimizdan quyidagi xulosalarga keldik:

1. Isajon Sulton istiqlol davri yozuvchilarining yorqin vakillaridan biri.
2. Isajon Sulton o'zbek romanchiligi taraqqiyotida muhim o'rin egallagan yozuvchi hisoblanadi.
3. Isajon Sultonning tarixiy romanlarining muhim xususiyatlaridan biri uning chuqur zamonaviyligi va hozirjavobligidir. Adib kitobxon dilidagi gaplarni, uning orzu va istaklarini ifodalay olgan va eng muhimi, zarur hodisalar haqida kitobxon istaganidek obrazli so'zlay olgan.
4. Isajon Sulton ijodining mavzu ko'lamiga keng va rang-barang.
5. Isajon Sulton Farg'ona badiiy tafakkurining ko'zga ko'ringan namoyondalaridan biri.
6. Isajon Sultonning tarixiy romanlari xalq qalbidan munosib joy oladi va bu asar yosh avlodni komil inson qilib shakllanishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Yozuvchi voqealarni haqqoniy tasvirlasa-yu, o'zining dunyoqarashidagi cheklanganlik oqibatida kelib chiqadigan g'oya asardan kelib chiqargan mantiqiy xulosaga muvofiq kelmasa, bu subyektiv g'oya (niyat) deyiladi. Bunda muallif ixtiyoridan tashqari, o'z-o'zidan boshqa, to'g'ri xulosa ham kelib chiqadi. Bu obyektiv g'oya deyiladi. Asar qimmatini ana shu bilan belgilanadi. Shuning uchun ham, Dobrolyubov aytganidek, muallifning nima demoqchiligi emas nima deganligi muhimdir.

Badiiy ijod jarayonida san'atkorning subyektiv maqsadi bilan obyektiv g'oya bir-biriga zid kelib qolishi mumkin. Ko'pincha shunday bo'ladiki, g'oya yozuvchining irodasiga qarama – qarshi uning asarlaridan obyektiv ravishda kelib chiqadi. Yozuvchi o'z oldiga bir g'oyaviy maqsadni qo'yadi, asardan kelib chiqadigan obyektiv xulosa esa butunlay boshqacha bo'ladi, natijada yozuvchi g'oyasi soxta bo'lib qoladi. Asar asosidan kelib chiqadigan g'oya qanchalik haqqoniy bo'lsa, badiiy ijodning natijasi ham shunchalik yuksak bo'ladi.

G'oya obrazlar tizimi orqali ochiladi. San'atkor zo'r bo'lsa, aytmoqchi bo'lganidan ham ko'proq narsani aytishi mumkin. G'oya aniq hayot materiali asosida ochiladi. Badiiy asar asosida yotgan g'oyani aniqlash osonlik bilan

qilinadigan ish emas. Asar g’oyasini aniqlash juda qiyin ish bo’lib, faqat kuchli tafakkur bilan birlashgan estetik hissiyotninggina qo’lidan keladi, xolos.

Adabiy tanqidchi Rahimjon Rahmat ushbu asar haqida quyidagi fikrlarni aytib o’tgan: “Isajon Sultonning asarlaridagi ruh shunday: Ko’zning atroflarida iztirob izlari, ko’zning o’zida esa dard aks etgan, ko’z tubida esa yulduz kabi umid nurlanib turadi. Inson ko’nglida shamday zaif miltirab turadigan qiyomat kunining sodir bo’lishini doim sezib yuradigan bir his to’satdan alangalanib, kishining butun ichki olamini qamrab oladi. Go’yo yonib turgan shamdan alanga chiqib butun boshli uy yonib ketgandek. Insonning ko’ngil uyiga o’t ketgan. Inson ko’nglida favqulotda bir vaziyatlarda ana shunday yong’in sodir bo’lib turadi. Buni “apokalipsis” deyishadi g’arbliklar. Ya’ni kishi nazarida rostdan ham qiyomat sodir bo’lib, olamning Olloh yaratgan azaliy muvozanati, uyg’unligi tartibsiz ravishda parchalana boshlaydi. Bu holat ruhiy xasta kishilarda patologik ko’rinishda namoyon bo’ladi. Aql o’limni o’ylab, ruhni dahshatga soladi. Patologik o’lim tuyg’usiga asir bo’lgan kishi ko’nglida dunyoviy qadriyatlarning ma’nosini yemirib tashlaydi. Shunday bir o’ta ziddiyatli holatda inson o’z joniga qasd qilganini bilmay qoladi. Xuddi saraton kasali hujayrasiga o’xshaydi faollashgan o’lim haqidagi o’y, immune tizim nazoratidan butunlay chiqib ketgan saraton hujayralari o’z holicha, tana muhofaza kuchlariga zarracha bo’ysunmay o’sa boshlaydi. O’lim haqidagi o’y ba’zan tafakkurning temir mantig’ini parchalab, to’g’onini buzib tashlagan oqim kabi hamma narsani yakson qilib tashlaydi. Ilhom ham ko’ngildagi u yoki bu tuyg’uning bir muddat aql muhofazasidan chetga chiqishidir.

Isajon Sultonning asarlari keyingi yillarda ingliz, nemis, turk, rus tillariga o’girildi. Shvetsiyaning adabiy agentlaridan biri - OHO-Press "Boqiy darbadar"ga va "Ozod"ga qiziqish bildirmoqda. Adibning o’zi esa, hind mutafakkiri Javoharlal Neruning "Hindiston" asarining Boburga bag’ishlangan qismini, shuningdek, yapon adiblari Ryunoske Akutagava, Yasunari Kavabata, turk adibi Umar Sayfiddin asarlarini o’zbek tiliga tarjima qilgan.

O’zbek adabiyotida Abu Rayhon Beruniy obrazi talqin qilingan turli janrlardagi yigirmaga yaqin asar mavjud. Bu asarlar qatoriga O’zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sultonning joriy yilda nashr qilingan "Abu Rayhon Beruniy" romani ham qo’shildi. Roman alloma obrazi talqin qilingan boshqa asarlarga qaraganda qator jihatlar bilan o’ziga xoslik kasb etadi. Jumladan, yozuvchi Beruniy davrini to’laqonli aks ettirishga urinish bilan bir qatorda hazrat Beruniyning hayoti, shaxsiyatini, uning diniy, falsafiy, siyosiy qarashlarini to’laqonli ochib berishga harakat qilgan.

Qolaversa, Abu Rayhon Beruniyning ilmiy faoliyati, olib borayotgan tadqiqot ishlari uchun asqotarlik, o’z qo’llari bilan yasagan moddalarning solishtirma og’irliklarini o’lchovchi asbob, qimmatbaho toshlarning og’irligini aniqlash uchun

nozik tarozi, tutash idishlar qoidasiga asoslangan uskuna, yuqori aniqlikdagi usturlub va armilla kabi har xil hajmdagi asbob-uskunalaridan iborat qo'l ixtirolari, aniq ilmiy dalillar bilan ilgari surgan aql kashfiyotlarini asarning boshidan to oxiriga qadar goh sharoit taqozosiga ko'ra voqealar yordamida, goh obrazlar tilidan har xil shaklda ko'rsatib o'tadi. "Abu Rayhon yunon olimlarining yer yuzi tuzilishiga oid asarlarini ham o'qib chiqdi. Qolaversa, uchburchak va to'g'ri burchak nazariyasini ham o'rganib oldi. Qachon qaramay, uni hisob-kitoblar ustida ko'rardim. Rum usturlubini o'lchab tekshirib ko'rgach, temirchi bilan birga, qo'llari kuya-kuya o'z usturlobi va armillasini yasadi" Alloma ajdodimizning ilmiy yo'nalishdagi kashf-u karomatlari, mehnat-u mashaqqatlari shu zayl tasvirlanadi. Bu o'rinda Fransiyaning sobiq prezidenti Fransua Mitteranning quyidagi gaplari yodimizga tushadi: "G'arbda "Al-Baron" deb non olgan Sharqning buyuk mutafakkir olimi Abu Rayhon Beruniyning insoniya oldida qilgan xizmatlari shu qadar buyukki, uning yoniga boshqa birona millatning vakilini qo'yib bo'lmaydi. Jahon ilm-fan tarixini Abu Rayhon ning barcha sohalarida birinchi edi. iyning ilmiy ishlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi". Isajon Sulton Abu Rayhon Beruniyning shohlar bilan munosabatiga ham vangicha nigoh bilan nazar soladi Yozuvchi hu borada o'z salaflariga qaraganda tarixiy haqiqatga to'la yondashishga harakat qiladi. Hazrat Abu Rayhon Beruniy qalamiga mansub bo'lgan, o'zining hasbi holi bayon qilingan quyidagi satrlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uning amir-u sultonlar bilan munosabati doimiy ravishda kolliziyali tarzda kechgan deyish noto'g'ri bo'ladi nazarimizda. Beshikdan to qabrgacha ilm izlashning go'zal namunasini o'z hayoti misolida ko'rsatgan daho zotning o'lim to'shagidagi ahvoli Isajon Sulton taqlinida tarixiy haqiqat va badiiy mahorat uyg'unligida tasvirlanganini ko'rishimiz mumkin.

Xulosaga kelsak, Alvon bulutlar tomonga uzanib ketgan, ikki cheti, urug'larini sohib yuborgan va kuchli islar taratayotgan, maysalarga to'la tafakkur so'qmog'idan shu tariqa quyosh botayotgan taraflarga ravona bo'lmoqdamiz. Va bir qur alanglaganimizda ko'ramizki, o'zimiz bilan olib ketayotganimiz faqat ma'nolar ekan, xolos".

Isajon Sulton jurnalistlar bilan bolgan suhbatda quyidagilarga to'xtalib o'tgan:

O'rxun-Enasoy yozuvlariga qiziqmagan ziyoli bo'lmasa kerak. Bir kuni uning turkcha va o'zbekcha tabdilini solishtirib o'zimcha o'qib o'tirganimda, u til turkchadan ko'ra bizga yaqinroq ekani, ko'plab so'zlar, "qildimiz", "ko'rdimiz", "ettimiz"degan fe'llar esa ayrim shevalarimizda bugun ham borligi diqqatni jalb qildi. Shunda ayniqsa yoshlarimiz uchun o'qilishi yengil, arab va fors so'zlari aralashmagan, toza turkiy tildagi bir asar yaratish fikri tug'ildi. Buning uchun olimlarimiz, filologiya fanlari doktori, professor Qosimjon Sodiqovdan hamda filologiya fanlari doktori Quadratilla Omonovdan minnatdorman, turkologiyaning bu ikki zabardast mutaxassisi yordamlarini sira ayashmadi. Natijada "Bilga Xoqon" asari bunyodga keldi.

Bugungi kun kishisining ichki dunyosiga nazar solsak, siz aytgan hodisani ko'ramiz. Inson o'zi bilan tarixni, bugunni hamda kelajakni olib yuradi. Haqiqatan ham, bugun kun kechirayotgan bir kishi kim? Bu o'zi dunyoga kelgan vaqtdan boshlab shu kunigacha bo'lgan voqealarni hamda ota-onasi, yoshi ulug'lar so'zlab bergan tarixlarni biladigan, jamiyat hodisalariga shohid bo'lgan, ijtimoiy vaziyatlarning guvohi bo'layotgan inson. Biroq, uning dunyoqarashi shu bilangina chegaralanib qolmaydi. U o'zi bilim olgan manbalariga qarab Odam Ato yaralganidan tortib jahon urushlarigacha, oyni zabt etgan texnologiyalardan tortib aytaylik, yana allaqancha ishlardan xabardor kishi hamda bularning bariga uning o'z shaxsiy munosabati bor. Ba'zilariga to'g'ridan-to'g'ri, ba'zilariga majoziy munosabat bildiradi. Shu sababli, siz tilga olib o'tgan hikoyalarni bugungi kun kishilari dunyoqarashining ayrim jihatlari, desa bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. “Sharq yulduzi” jurnali, 2009, – 4 b.
2. Karimov I. A Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.:”Ma'naviyat”. 2008. 136- b
3. Botirova Shahlo. Romanchilikda evrilishlar || “Yoshlik” junali, 2009, N4 .
4. Qurbonova F. Isajon Sulton hikoyalarida sharqona rivoyatlar talqini // O'zbek tili va adabiyoti. -Toshkent, 2023. - №3. B.91-95. [10.00.00 № 14]
5. Qurbonova F.A. Mifologik tasavvurlar va zamonaviy epik talqin xususida Qo'qon DPI.Ilmiiy xabarlar. 2 (6)-2022 Mart. B.84-88. [10.00.00 № 34]
6. Qurbonova F.A. Isajon Sulton hikoyalarida folklor an'analari // So'z san'ati xalqaro jurnali. -Toshkent, 2021.4 jild, 3- son.-B.120-126. [10.00.00 №31]
7. Qurbonova F. "Asarlar zo'rmi-zo'rmasmi, deyaverib charchadik, adabiyot nima bo'lsa ham yashamoqda". Isajon Sulton // O'zbekiston milliy axborot agentligi UzA. Ilm-fan bo'limi. - Toshkent,
8. 2022.17.01.16.44.https://uza.uz/posts/338014/24.07.2023, 10:21, B.1-8.
9. Qurbonova F.A. Badiiy nutq – qahramon ruhini yaratish omili(Isajon Sulton hikoyalari haqida) // Osiyo ko'p qirrali tadqiqot jurnali (AJMR)